



NAVOIY VILOYATI TURIZM SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH
MEXANİZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSİON YO'NALİSHLARI

Turayev Abduvoxid

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0009-9997-1053

abduvoxiturayev70@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada viloyatning turizm salohiyati, hozirgi holati, muammolari va ularni hal qilishning innovatsion usullari ko'rib chiqilgan. Xorijiy tajriba va so'nggi statistik ma'lumotlar asosida turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Aqli turizm, ekoturizm, madaniy turizm kabi innovatsion yondashuvlar orqali Navoiy viloyatining turistik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, turizm salohiyati, innovatsion yondashuvlar, aqli turizm, ekoturizm, madaniy turizm, infratuzilma, xorijiy tajriba.

ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА
НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Тураев Абдувохид

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье рассматривается туристический потенциал региона, текущая ситуация, проблемы и инновационные пути их решения. Рекомендации по развитию туризма даны на основе зарубежного опыта и новейших статистических данных. Было отмечено, что дальнейшее развитие туристических возможностей Навоийской области возможно за счет инновационных подходов, таких как умный туризм, экотуризм и культурный туризм.

Ключевые слова: Навоийская область, туристический потенциал, инновационные подходы, умный туризм, экотуризм, культурный туризм, инфраструктура, международный маркетинг, зарубежный опыт.

INNOVATIVE DIRECTIONS FOR IMPROVING MECHANISMS FOR THE EFFECTIVE USE OF
TOURISM POTENTIAL IN NAVAI REGION

Turaev Abduvokhid

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article examines the tourism potential of the region, its current state, problems and innovative ways to solve them. Recommendations for the development of tourism are given based on foreign experience and the latest statistical data. It is emphasized that the tourism potential of Navoi region can be further developed through innovative approaches such as smart tourism, ecotourism, and cultural tourism.

Keywords: Navoi region, tourism potential, innovative approaches, smart tourism, ecotourism, cultural tourism, infrastructure, international marketing, foreign experience.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasining har tomonlama barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda turizm salohiyati yanada oshirish hamda undan samarali foydalanish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot Strategiyasida ham turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida mahalliy sayyoohlар sonini 12 milliondan oshirish hamda xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasi belgilab olingan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning hozirgi sharoitlarida turizmning investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sherikchilik mexanizmlaridan foydalangan holda turizm salohiyati rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, turizm salohiyatini rivojlantirishning yangicha mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizning har bir hududi salohiyatini o'rganish hamda undan samarali foydalanish masalalari dolzarb bo'lib hisoblanadi. Xususan, turizm sohasini barcha hududlar qatorida Navoiy viloyatida ham rivojlanish, uning turistik destinatsiyalaridan yanada samaraliroq foydalanish negizida yangi turistik yo'nalishlarni ochish maqsadga muvofiqdir.

Navoiy viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, boy tabiiy manzaralar, tarixiy obidalar va madaniy merosga ega. Viloyat turizm salohiyati jihatidan katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, hozirgi kunda mazkur salohiyatdan to'liq foydalanimoqda deb bo'lmaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon xo'jaligining globallashuvi va integrasiyalashuvi kuchayib borayotganbir davrda turizm tushunchasining mohiyatini to'g'ri talqin etish va uning mohiyatini to'g'ri anglab yetish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda xorijiy va mahalliy olimlarning fikri turli-tuman bo'lib, turlicha qarash va konsepsiylar mavjud.

Rossiyalik iqtisodchi olim Vinokurov (2004) turizmga "Turizm bu – hordiq chiqarish, davolanish, sport bilan shug'ullanish, ziyorat qilish, biznes qilish maqsadida inson tomonidan bo'sh vaqtda amalga oshiriladigan sayohatdir" deb ta'rif bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim To'xliyevning (2010) ta'rifiga ko'ra, turizm bu – turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turidir.

Jumladan, Aleksandrova «Kishilarning doimiy turar joylari va ishlaridan farqlanuvchi joylarga yetib kelishi va joylashishi vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yig'indisi turizmdir», - deb ta'kidlab o'tgan.

Tishukov esa "Turizm –mamlakat fuqarolari, xorijlik fuqarolar vafuqarolikka ega bo'limgan shaxslarning doimiy turarjoylaridan sog'lomlashtirish, tanishish, kasbiyishbilarmonlik, sport,diniy va boshqa maqsadlarda vaqtinchayashab turgan mamlakatidagi haq to'lanadigan faoliyat bilan band bo'limgan holda vaqtinchalik sayohatlaridir", - degan fikrni bildiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ayrim xorijiy va mahalliy olimlar turizmning jadal taraqqiyoti alohida tarmoq holidagi industriyadir, degan fikrlarni olg'a surishmoqda.

Tishukov o'z risolasida "Turizm industriyasi – bu mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumi ovqatlanish obyektlari, dam olish obyektlari va vositalari, tanishish, ishbilarmonlik, sog'lomlashtirish, sport va boshqa maqsadlardagi obyektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatininamoyon etuvchi tashkilotlar to'plamidir", - deb e'tirof etган.

Birjakov esa "Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yo'nalishi va tabiat, turistik mahsulotga javob beruvchi, umuminsoniy axloq va tartib tamoyillariga mos


keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini ta'minlash va qanoatlantirishga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi maqsadlarga yo'naltirilgan harakatlar yig'indisidir", - degan fikrni bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillarini tadqiq qilishda kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-yildan 2019-yilga qadar bu ko'rsatkich sekinlik bilan o'sib borganini, pandemiya munosabati bilan 2020-yilda keskin pasayish kuzatilganligini, 2021-yildan esa yana asta-sekin o'sa boshlaganini, ayniqsa Samarqand iqtisodiyot va servis institutiga mazkur viloyat biriktirilganidan so'ng keskin o'sish kuzatilganligini ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2015-2024 yillardagi Navoiy viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soning o'zgarish dinamikasi (ming kishi)

Manba: Navoiy viloyati turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida.

Viloyatning turizm salohiyati anchagina yuqori va u asosan quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Tabiiy boyliklar:

Zarafshon tog'tizmasi: tog'li hududlarda piyoda sayr qilish, alpinizm va ekstremal turizm uchun ajoyib sharoitlar;

Qizilqum cho'li: cho'l safarisi, tuya sayrlari va yorqin yulduzli osmonni kuzatish imkoniyati;

Aydarko'l ko'li: baliq ovlash, qushlarni kuzatish va dam olish uchun ideal joy.

- Tarixiy obidalar:

Raboti Malik: XI asrga oid qadimiy karvonsaroy;

Chashma kompleksi: diniy va madaniy ahamiyatga ega ziyoratgoh;

Navoiy shahridagi me'moriy yodgorliklar: zamонавија и an'anавија ме'morchilikning uyg'unligi.


- Madaniy meros:

Hunarmandchilik: gilam to'qish, kulolchilik va zargarlik buyumlari;

Milliy taomlar: mahalliy oshxona an'analari va taomlar.

Viloyat Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari bilan bir qatorda sayyohlar tashrif buyuradigan eng sevimli joylar qatoriga kiradi. U ulkan tarixiy, madaniy va etnografik salohiyatga ega. Bu yerda 340 ta arxeologik yodgorliklar, 69 ta arxitektura yodgorligi, 16 ta monumental san'at yodgorligi va 8 ta muzey mavjud (2-rasm).

Navoiy viloyatining moddiy-madaniy obyektlari



- Monumental yodgorliklar
- Arxeologik yodgorliklar
- Diqqatga sazovor joylar
- Monumental san'at yodgorliklari


2-rasm. Navoiy viloyatining moddiy-madaniy obyektlari

Viloyatda etnografik, safari, ovchilik, ishbilarmonlik, sanoat, agroturizm kabi ko'plab turizm turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud ekanligiga qaramay hozircha asosan ekologik, madaniy va diniy turizm turlari bo'yicha turistlarning tashriflарини kuzatish mumkin va bu o'z navbatida yuqorida турлар bo'yicha yangi marshrutlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish imkonini ko'rsatadi (3-rasm).

Hozirgi vaqtida Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha qator muammolar mavjud:

Bular sifatida viloyatda infratuzilmaning yetishmovchiligi (mehmonxonalar soni va ularda xizmat sifatining pastligi, transport tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi), marketing va targ'ibotning sustligi (viloyatning turistik imkoniyatlari xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmaydi, turistik mahsulotlarni zamonaviy usullarda taqdim etishning yetishmovchiligi), xizmat ko'rsatish sifatining talab darajasida emasligi, malakali kadrlar yetishmovchiligini aytib o'tish mumkin.

Albatta boshqa sohalar singari turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llash, innovatsion yechimlardan foydalanish nihoyatda katta o'rinn tutadi, ayniqda "Atrof muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da g'oyatda muhim.



- Ekoturizm
- Madaniy turizm
- Diniy turizm
- Boshqa turlari

3-rasm. Navoiy viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlarning safar maqsadlari bo'yicha turlari

Turizmda innovatsiya – turizm sohasida yangi texnologiyalar, usullar yoki yondashuvlarni joriy etish orqali sayyoohlar tajribasini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirish jarayonidir.

1-jadval

Innovatsyaning Navoiy viloyati turizmiga tatbiqi hamda kutilayotgan amaliy natijalar

Innovatsiya	Innovatsyaning tadbiqi	Kutilayotgan natija
AR qo'llanma ishlab chiqish	Sarmishsoy petrogliflarini ARda tushuntirish	Sayyoohlarning qiziqishi oshadi
Eco-mehmonxonalar qurish	Aydarko'l yaqinida to'liq quyosh panellari bilan jihozlangan mehmonxonalar barpo etish	Tabiat muhofaza qilinadi
Virtual ekskursiyalar tashkil etish	Raboti Malikni onlayn tomosha qilish	Xorijiy turistlarni ko'proq jalb qiladi

Viloyat turizmini rivojlantirishda quyidagi innovatsion yondashuvlarni qo'llash mumkin deb o'ylaymiz:

1) Aqlli turizm (Smart Tourism). Bunda virtual va kengaytirilgan realitet (VR/AR): tarixiy obidalarni virtual tarzda ko'rish imkoniyatini yaratish, mobil ilovalar: sayyoohlar uchun yo'naltirilgan mobil ilovalar yaratish.

2) Ekoturizmni rivojlantirish. Bunda tabiiy resurslardan faol foydalanish, Zarafshon tog'tizmasi va Qizilqum cho'lida ekoturizm loyihamonlari amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish.

3) Madaniy turizmni rag'batlantirish. Mahalliy an'analarni targ'ib qilish: hunarmandchilik mahsulotlari va milliy taomlarni turistik mahsulotga aylantirish.

4) Madaniy tadbirlar: xalqaro miqyosda madaniy festival va ko'rgazmalar tashkil etish.

5) Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, investitsiyalarini jalb qilish: xususiy sektoring turizm sohasiga investitsiyalarini rag'batlantirish.

6) Qonuniy bazani takomillashtirish: turizmni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar va qoidalarni yaratish.

7) Infratuzilmani takomillashtirish. Turistik transport xizmatlarini rivojlantirish, jumladan, avtobuslar, velosipedlar va piyoda yo'laklar tashkil etish.

8) Brending va ko'rsatkich monitoringi: Navoiy viloyatining o'ziga xos brendini yaratish va muntazam ravishda turizmning rivojlanishini ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Bizningcha ushbu innovatsion yechimlardan foydalanish viloyatda turizmning rivojlanishiga sezilarli darajada o'z hissasini qo'shadi va qator amaliy natijalarga erishiladi (1-jadval).

Xulosa va takliflar.

Navoiy viloyati uchun ayniqsa tabiat va tarixiy merosni raqamlashtirish, smart turizm infratuzilasini rivojlantirish va ekoturizm loyihamonlari (masalan, "Yashil Navoiy" kampaniyasi) muhim innovatsiyalardan hisoblanadi.

Navoiy viloyati kabi boy tabiiy va madaniy merosga ega bo'lgan hudud uchun innovatsion yechimlardan foydalangan holda turistlarning qiziqishlarini yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini ko'tarish hamda atrof-muhitni saqlab, iqtisodiyotni rivojlantirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/References:

Винокуров М.А., (2004) Что такое туризм?/научная статья- www.dissercat.com

Тураев, А. (2024). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ, И НЕОБХОДИМОСТЬ ИХ ПЛАНИРОВАНИЯ. Экономическое развитие и анализ. 2, 7 (июл. 2024), 186–189.

Тұхлиев И.С., Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ. (2010) Туризмни режалаштириш. Дарслик.- Тошкент, «Иқтисодиёт-молия» нашриёти. -254 бет.